**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING**
**BUYRUG‘I**

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida yong‘in-texnikkomissiyasi va ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasini tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-sentabrdagi “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2013-yil 28-martdagi 89-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-martdagi 89-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yong‘in-texnik komissiyalarini tashkil etish va ularning faoliyati tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining yong‘in-texnik komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-martdagi 89-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini tashkil etish va ularning faoliyati tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasi tarkibi 2-ilovagamuvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi yong‘in-texnik komissiyasi vazifalari 3-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida yong‘in texnik komissiyasining joriy yil IV choragi uchun yong‘in xavfsizligi holati yuzasidan tekshiruvini (monitoring) o‘tkazish reja-jadvali 4-ilovaga muvofiq;

ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasining huquqlari va majburiyatlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari 10 kun muddat ichida yong‘in-texnik komissiyasi va ko‘ngilli yong‘in o‘chirish drujinasi tarkiblarini tuzish choralarini ko‘rsin.

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: TZ44473561

3. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni boshqarma va bo‘limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil “29”- avgust,
272 -son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil “29” avgustdagi
272 - son buyrug‘iga
1-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-martdagi 89-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yong‘in-texnik komissiyalarini tashkil etish va ularning faoliyati tartib ito‘g‘risidagi nizomga asosan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining yong‘in-texnik komissiyasi**
**TARKIBI**

| T/r | Yong‘in-texnik komissiyasi bo‘yicha lavozim: | Familiyasi, ismi, sharifi | Lavozimi |
|---|---|---|---|
| 1. | Komissiya raisi | T.Komilov | Vaziro‘rinbosari |
| 2. | Komissiya raisi o‘rinbosari | A.Shernazarov | Xo‘jalik bo‘limi boshlig‘i |
| 3. | Komissiya a’zosi | A.Xolmuhamedov | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi |
| 4. | Komissiya a’zosi | X. Xamidov | Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha muhandis-bosh mutaxassisi |
| 5. | Komissiya a’zosi | O.Dauletbaev | O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi bosh mutaxassisi |

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil “29” avgustdagi
272 - son buyrug‘iga
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-martdagi 89-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini tashkil etish va ularning faoliyati tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasi**

**TARKIBI**

| T/r | Ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasi bo‘yicha lavozim | Familiyasi, ismi, sharifi | Lavozimi |
|---|---|---|---|
| 1. | Ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasi komandiri | S.Maxmayev | Xo‘jalik bo‘limi bosh mutaxassisi |
| 2. | Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi | E.Axmadaliyev | Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi |
| 3. | Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi | K.Xabibullayev | Xo‘jalik bo‘limi kompyuterlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimi |
| 4. | Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi | N.Sayfiddinov | Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi |
| 5. | Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi | J.Amonov | Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ish haqini moliyalashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi |
| 6. | Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi | M.Mamajonov | Infratuzilmani rivojlantirish va binolarni ekspluatatsiya qilish bo‘limi yetakchi mutaxassisi |
| 7. | Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi | Q.Almardanov | Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi |
| 8. | Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchi | B.Bekmatov | Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi II darajali ish yurituvchi kotib |

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil “29” avgustdagi
272 - son buyrug‘iga
3-ILOVA

## Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi yong‘in-texnik komissiyasining funksiyalari

1. Quyidagilar yong‘in texnik komissiyasining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

Vazirlikning tegishli bo‘linmalari vakillari bilan birgalikda vazirlikning omborxona, ma’muriy va boshqa xizmat xonalari, jihozlarini yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan yiliga kamida 2 marotaba yong‘in-texnik tekshiruvidan o‘tkazish;

Vazirlikning rahbariyati, boshqarmalar va boshqa bo‘lim boshliqlari bilan birgalikda vazirlikda yong‘inlarning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish, shuningdek, rejalashtirilgan tadbirlarni bajarishda tashkiliy yordam ko‘rsatish;

yong‘in xavfsizligi choralari to‘g‘risidagi yo‘riqnomalarni ishlab chiqish va kelishish;

Vazirlik binosida yong‘in xavfsizligi bo‘yicha qoidalar, plakatlar va boshqa ko‘rgazmali qo‘llanmalar bilan ta’minlashni tashkil etish;

Vazirlikda yong‘in xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha seminarlar o‘tkazish;

Vazirlikda yong‘inga qarshi tashviqot va targ‘ibot ishlarini tashkil qilish, vazirlik omborxonalarining yong‘inga qarshi holati va ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasining yong‘inlarni o‘chirishga tayyorgarlik ko‘riklarini o‘tkazishni, shuningdek, FVV huzuridagi yong‘in inspeksiyasining yozma ko‘rsatmalarida tavsiya qilingan yong‘inga qarshi tadbirlarning bajarilishini tekshirishni tashkil etish;

Vazirlikda sodir bo‘lgan yong‘in faktlarini tekshirishda qatnashish. Shunga o‘xshash holatlarning oldini olish uchun ularning sabablarini aniqlash va asosli xulosalar tayyorlash, dalolatnoma tuzish;

Vazirlik xodimlarini yong‘in xavfsizligi bo‘yicha kuchga kiritilayotgan yangi qonun hujjatlari va boshqa normativ-hujjatlardan xabardor qilish;

Birlamchi yong‘in o‘chirish vositalaridan, yong‘inni o‘chirish va undan xabar berish avtomatik tizimlaridan to‘g‘ri foydalanilishi va ularning saqlanishini;

yong‘indan xabar berish va uni o‘chirish avtomatik tizimlari, tutunga qarshi himoya, ichki yong‘inga qarshi suv quvurlari, yong‘in haqida ogohlantirish tizimlari ishlarining samaradorligini;

yong‘inga qarshi o‘qitish, bilimlarni tekshirish va barcha turdagi yo‘l-yo‘riqlar berishning o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishini;

hujjatlarning (vazirlik markaziy apparat binosini yong‘inga qarshi holatini tekshirish dalolatnomalari, yong‘in holatlari bo‘yicha tekshiruvlar dalolatnomalari, komissiyaning ish rejalari va shu kabilarning) saqlanishini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil “29” avgustdagi
272 - son buyrug‘iga
4-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida yong‘in texnik komissiyasining joriy yil IV choragi uchun yong‘in xavfsizligi holati yuzasidan tekshiruvini (monitoring) o‘tkazish**
**REJA-JADVALI**

| T/r | Yong‘in xavfsizligi holati yuzasidan tekshiruvi (monitoring) o‘tkaziladigan obyekt | sentabr | oktabr | noyabr | dekabr |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.** | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparat binosi va yerto‘lasi | | | | |

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil “29” avgustdagi
272 - son buyrug‘iga
5-ILOVA

**Ko‘ngilli yong‘indan saqlash drujinasining huquqlari va majburiyatlari**

1. Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilar quyidagi huquqlarga ega:

Vazirlik hududida DYOXX mahalliy organi bilan birgalikda yong‘in xavfsizligini ta’minlash faoliyatida ishtirok etish;

yong‘inlar tarqalgan (tarqalishi ehtimoli bo‘lgan) va ularni paydo qiladigan joylarga kirib borish;

yong‘inga olib keladigan yong‘indan xavfli va shunga o‘xshash ishlarning vazirlik rahbariyati yoki DYOXX mahalliy organi tomonidan ko‘rib chiqilgunga qadar olib borilishini taqiqlash.

Ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilar quyidagilarga majbur:

DYOXX tomonidan tasdiqlangan, ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilarni dastlabki tayyorgarlikdan o‘tkazish dasturida nazarda tutilgan hajmda zarur yong‘in-texnik bilimlarga ega bo‘lish;

yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ta’minlashda ishtirok etish;

yong‘in xavfsizligi qoidalarining buzilishi, shuningdek yong‘inga olib keladigan yong‘indan xavfli va boshqa ishlarning olib borilishi holatlari aniqlanganda ular to‘g‘risida vazirlik rahbariyatiga, shuningdek DYOXX mahalliy organlariga xabar berish;

ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilarga qo‘yiladigan talablarni bajarish;

sababli tavakkalchilik doirasida harakat qilgan, yong‘in o‘chirishda qatnashgan ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilar yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashdan ozod qilinadi.